



## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MASOFAVIY BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

**Turdiyev Qosim Maxmud o'g'li**

*Bank-moliya akademiyasi magistranti*

**Kirish:** Tijorat banklarining raqobatbardoshligini ta’minlashda eng samarali yo‘l mijozlarning unga bo‘lgan ishonchini qozonish va ular uchun barcha qulayliklarni yaratish, shuningdek, xizmatlar turi, sifati va tezkorligini oshirish hisoblanadi. Banklar raqobatbardoshlikni ta’minlashi uchun zamonaviy bank xizmatlarini joriy etishga, yangi texnologiyalardan foydalanishga yanada ko‘proq ehtiyoj sezmoqdalar. Xususan bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev o‘z nutqida “...bank tizimini rivojlantirish uchun bu yil keskin choralar ko‘rishimiz lozim. 2020 yildan boshlab har bir bankda keng ko‘lamli transformatsiya dasturi amalga oshiriladi. Bu borada banklarimizning kapital, resurs bazasi va daromadlarini oshirish alohida e’tiborimiz markazida bo‘ladi” deya, ta’kidlab o‘tgan edilar [1]. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, so‘ngi yillarda bank tizimini erkinlashtirish va erkin raqobat sharoitiga moslashtirish ko‘zda tutilgan bir qator hujjatlar qabul qilindi. Xususan, 2018 yil 23 martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida»gi 3620-sonli Qarori qabul qilinishi bank xizmatlarini ko‘rsatishda mavjud muammolar va banklar tomonidan amalga oshirilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlarni belgilab berdi [2]. Jumladan, naqd pulsiz to‘lovlarni amalga oshirishda innovasion mahsulotlarni, shu jumladan, bevosita muloqotsiz va mobil texnologiyalarni rivojlantirish hamda ilgari surish; bevosita muloqotsiz va mobil texnologiyalarni, birinchi navbatda, ijtimoiy-maishiy xizmat ko‘rsatish, transport, savdo, umumiy ovqatlanish sohalarida, ayniqsa, hududlarda joriy etish; xalqaro to‘lov tizimlari bilan o‘zaro hamkorlikni ta’minlash va boshqalar.

So‘ngi yillarda mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash, ularga ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirish maqsadida banklar tumonidan turli innovasion bank xizmatlari taklif qilinmoqda. Xususan, masofadan bank xizmatini ko‘rsatuvchi an’anaviy «Bank-mijoz» tizimi respublikamizda keng tarqalgan bo‘lib, barcha banklarda tatbiq qilingan. Ushbu tizimni qo‘llash uchun mijozning kompyuterida maxsus dastur o‘rnatilib, aloqa kanallari orqali bankning axborot tizimi bilan o‘zaro muloqot ta’minlanadi. Ammo «Bank-mijoz» tizimini qo‘llashda muayyan ish joyiga bog‘lanish hamda ixtisoslashtirilgan dasturlardan foydalanish zarurligi sababli, ushbu tizimdan foydalanish imkoniyati cheklangan. Shuning uchun Internet tarmog‘i va oddiy brauzer, ya’ni mijozni tarmoqqa kirishini ta’minlovchi keng tarqalgan dastur orqali ishlashini ta’minlovchi onlayn-banking (internetbanking) tizimi keng qo‘llaniladi. Internet-banking texnologiyasi bank uchun ham, mijozlar uchun ham qo‘shimcha qulayliklar yaratadi. Jumladan, mijoz o‘z hisobvarag‘i bo‘yicha bank amallarini bajarish uchun bankka bormasdan, Internet orqali xohlagan joyidan, xohlagan vaqtida bajarish imkoniyatiga ega bo‘lib, hisobvarag‘ining holati, mablag‘ning kelib tushishi,



to'lovlarning aks ettirilishi kabi amallar haqida ma'lumotlarni olishi mumkin. Bu esa mijoz uchun o'z vaqti va mablag'ini tejash, manzilning uzoq-yaqinligiga qaramasdan bankni ixtiyoriy ravishda tanlash va o'z mablag'larini tezkor boshqarish afzalliklarini yaratadi.

Shuningdek, "Uzcard" banklararo to'lov tizimi ishtirokchilari bo'lgan tijorat banklari bilan hamkorlikda "on-line" rejimida ishlaydigan milliy texnologik platformani yaratilishi Internet-banking xizmatlari orqali real vaqt ichida mijoz o'z kartochka hisobvaraqlarini boshqarishi, kommunal va boshqa to'lovlarni amalga oshirishi uchun imkoniyatini beradi.



**1-rasm. Masofaviy bank xizmatlari ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilar soni, 1 yanvar holatiga [3]**

Yuqoridagi rasm ma'lumotlaridan ko'rish mukinki, so'ngi uch yilda tizimdan foydalanuvchilar soni sezilarli ravishda ortishiga sabab bo'lgan. Mazkur tizimning evolyusiyasiga to'xtaladigan bo'lsak, masofaviy bank xizmatlari tashabbuskorlar Yagona Umumrespublika Protsessing Markazi va "CLICK" kompaniyasi sanaladi. 2013 yil 1 sentyabridan boshlab Yagona Umumrespublika Protsessing Markazi va "CLICK" kompaniyasining UZCARD-CLICK qo'shma loyihasi hayotga tatbiq etildi. Mazkur loyiha doirasida O'zbekistondagi istalgan bankning barcha UZCARD online plastik kartalari foydalanuvchilari istalgan bank yoki infokioskda UZCARD SMS-axborot berish xizmatini mobil telefonga ulashlari mumkin. So'ngra SMSaxborot berish xizmati ulangan mobil telefondan bepul USSD so'rovini jo'natib, o'z UZCARD online plastik kartasini tizimga bog'lash zarur. Shundan keyin foydalanuvchi mobil telefon orqali plastik kartadan to'lovni amalga oshira oladi. Barcha to'lovlar vositachilik haqisiz amalga oshirilishi mazkur loyihaning farqlanuvchi xususiyati hisoblanadi. Online plastik kartalar foydalanuvchilariga innovasion xizmatlarni taqdim etayotgan bunday zamonaviy loyihalarni joriy etish ko'p jihatdan mamlakatimizda naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimining rivojlanishiga imkon yaratmoqda.

Mamlakatimizda masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish barcha banklar tomonidan doimiy ravishda chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Anu shu



choratadbirlar samarasi o'laroq, 2020 yil 1 yanvaro holatiga xizmatdan foydalanuvchilar umumiy soni 10 mln. dan ortgan (1-jadval).

2020 yil 1 yanvar holatiga masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar sonining banklar o'rtasida taqsimlanishi [7]

№	Bank	Yuridik shaxslar va YaTTlar	Jismoniy shaxslar	Jami
1	TIF Milliy banki	52 969	1 657 243	1 710 212
2	"O'zbekiston sanoat-qurilish banki" ATB	31 464	777 366	808 830
3	"Agrobank" ATB	96 250	1 343 740	1 439 990
4	"Ipoteka-bank" ATB	98 400	870 055	968 455
5	"Mikrokreditbank" ATB	48 152	639 018	687 170
6	AT Xalq banki	91 332	1 022 259	1 113 591
7	ChEKI "Savdogar" ATB	8 380	67 803	76 183
8	ATB "Qishloq qurilish bank"	18 499	243 333	261 832
9	"Turonbank" ATB	15 783	148 771	164 554
10	ChEKI "Hamkorbank" ATB	69 714	716 852	786 566
11	"Asaka" ATB	19 546	561 568	581 114
12	"Ipak Yo'li" AITB	18 783	314 381	333 164
13	"Ziraat Bank Uzbekistan" AJ	1 174	13 218	14 392
14	"Trastbank" XAB	19 871	81 795	101 666
15	AT "Aloqabank"	14 739	244 809	259 548
16	"KDB Bank O'zbekiston" AJ	600	31 664	32 264
17	"Turkiston" XATB	2 805	7 570	10 375
18	Eron "Soderot" sho'ba banki	128	741	869
19	"Universal bank" ATB	3 371	36 369	39 740
20	"Kapitalbank" ATB	21 519	128 297	149 816
21	"Ravnaqbank" XATB	1 675	8 801	10 476
22	"Davr-Bank" XATB	17 772	49 817	67 589
23	ChEKI "Invest Finance Bank" ATB	16 601	212 520	229 121
24	"Asia Alliance Bank" ATB	9 551	109 447	118 998
25	"Hi-Tech Bank" XATB	1 337	20 261	21 598
26	"Orient Finans" XATB	9 492	150 207	159 699
27	"Madad Invest Bank" ATB	427	2 235	2 662
28	"O'zagroeksportbank" ATB	107	389	496

№	Bank	Yuridik shaxslar va YaTTlar	Jismoniy shaxslar	Jami
29	"Poytaxt bank" AJ	511	1 796	2 307
30	"Tenge bank" ATB	56	125	181
<b>Jami</b>		<b>691 008</b>	<b>9 462 450</b>	<b>10 153 458</b>

Masofaviy bank xizmatlari yuridik shaxslar va YaTTlar hamda jismoniy shaxslar segmentiga bo'lingan holda taqdim etib kelinmoqda. Mazur tizim foydalanuvchilar umumiy sonida TIF Milliy banki, Agrobank, Xalq banki, Ipotekabank hamda Sanoatqurilishbankining ulushi beqiyos bo'lib, ularning birgalikdagi ulushi qariyb 50 foizni tashkil etmoqda.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-580 Qonuni, 2019 yil 7 noyabr
2. O'zbekiston Respublikasining "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi O'RQ-578 Qonuni, 2019 yil 7 noyabr
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 iyuldagi "Koronavirus pandemiyasi davrida ijtimoiy himoyaga va yordamga muhtoj aholi qatlamlarini moddiy qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6038-sonli Farmoni.
5. Murojaat (2018) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, Xalq so'zi gazetasining 23 dekabr soni
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 23 martdagi «Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 3620-sonli Qarori
7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank statistik byuleteni, 2018-2020 yillar
8. Спильниченко В.К. Трансформация банковских платежных систем в экономике России // Экономический журнал. 2012. № 2 (26).
9. Лиходеева Н. И. Применение электронного банкинга при заключении и исполнении банковских договоров [Текст] / Н. И. Лиходеева // Юридическая работа в кредитной организации. – 2014. - No2. – С. 23-27.
10. Забродиская К.А., Захарова А.О. Основы развития дистанционного банковского обслуживания. БГЭУ Белорусский государственный экономический университет. Библиотека. 2012 г. 57-63. 7. [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz) – O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki Rasmiy sayti 8. [www.bankers.uz](http://www.bankers.uz)